



Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti

XXI ASR: FAN VA TA'LIM MASALALARI

ilmiy elektron jurnali

ISSN: 2181-9874



EDUCATION

2025

**SHVEYSARIYALIK SHARQSHUNOSLAR FRITZ MAYER VA ANKE
FON KYUGELGENNING TASAVVUFGA OID TADQIQOTLARI
QIYOSIY TAHLILI**

Shahzod Abdurasulov

Tayanch doktorant

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: abdurasulovshahzod944@gmail.com

Tel: +998 94 602 23 99

Ilmiy rahbar: **Alisher Doniyorov**

Tarix fanlari doktori, professor

Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrası

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: alisher_doniyorov@tsuos.uz

Annotatsiya: Maqola Shveysariya sharqshunoslik maktabining ikki yetuk vakili — Fritz Mayer va Anke von Kyugelgenning Markaziy Osiyo tasavvufshunosligiga qo‘shgan hissasini tahlil qiladi. Fritz Meierning Najmiddin Kubro va Naqshbandiyaga oid tadqiqotlari, shuningdek tasavvufiy atamalarni sharhlash uslubi ochib beriladi. Anke von Kyugelgen esa diniy tafakkur, modernizm va sovetshunoslik nuqtai nazaridan mintaqadagi islomiy merosni o‘rgangan. Ularning ishlari G‘arbda Markaziy Osiyo tasavvufshunosligi asoslarini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan.

Kalit so‘zlar: Shveysariya sharqshunosligi, Fritz Mayer, Anke von Kyugelgen, tasavvuf, Naqshbandiya, Kubraviya, Markaziy Osiyo, islomshunoslik, sharqshunoslik, ilmiy meros.

**COMPARATIVE ANALYSIS OF THE SUFI STUDIES CONDUCTED BY
THE SWISS ORIENTALISTS FRITZ MEIER AND ANKE VON
KÜGELGEN**

Shahzod Abdurasulov

Ph.D student

Tashkent State University of Oriental Studies

E-mail: abdurasulovshahzod944@gmail.com

Scientific supervisor: **Alisher Doniyorov**

Doctor of Historical Sciences, Professor

Department of History of the Peoples of Central Asia

Tashkent State University of Oriental Studies

E-mail: alisher_doniyorov@tsuos.uz

Annotation: The article analyzes the contributions of two prominent representatives of the Swiss school of Oriental studies, Fritz Meier and Anke von Kügelgen, to Central Asian Sufism studies. Fritz Meier's research on Najm al-Dīn Kubrā and the Naqshbandi order, as well as his approach to the interpretation of Sufi terminology, are highlighted. Anke von Kügelgen, on the other hand, explored the Islamic heritage of the region from the perspectives of religious thought, modernism, and Soviet studies. Their works have played a significant role in shaping the foundation of Western Central Asian Sufism studies.

Keywords: Swiss Orientalism, Fritz Meier, Anke von Kügelgen, sufism, naqshbandiyya, kubrawiyya, Central Asia, islamic studies, orientalism, academic heritage.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СУФИЙСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ ШВЕЙЦАРСКИХ ВОСТОКОВЕДОВ ФРИЦА МАЙЕРА И АНКЕ ФОН КЮГЕЛЬГЕН

Шахзод Абдурасулов

Базовый докторант

Ташкентский государственный университет востоковедения

Электронная почта: abdurasulovshahzod944@gmail.com

Тел.: +998 94 602 23 99

Научный руководитель: Алишер Дониоров

Доктор исторических наук, профессор

Кафедра истории народов Центральной Азии

Ташкентский государственный университет востоковедения

Электронная почта: alisher_doniyorov@tsuos.uz

Аннотация: Статья анализирует вклад двух выдающихся представителей швейцарской школы ориенталистики — Фрица Мейера и Анке фон Кюгельген — в изучение суфизма Центральной Азии. Рассматриваются исследования Фрица Мейера, посвященные Наджмуддину Кубра и Накишбандийскому ордену, а также его подход к толкованию суфийской терминологии. Анке фон Кюгельген, в свою очередь, изучала исламское наследие региона с точки зрения религиозной мысли, модернизма и советологии. Работы этих ученых сыграли важную роль в формировании основ западной суфийской ориенталистики Центральной Азии.

Ключевые слова: Швейцарская ориенталистика, Фриц Мейер, Анке фон Кюгельген, суфизм, накишбандия, кубравия, Центральная Азия, исламоведение, ориенталистика, научное наследие.

KIRISH

G‘arb sharqshunosligida tasavvuf tadqiqotlari Markaziy Osiyo madaniy merosini tushunishda muhim rol o‘ynaydi. Shveysariya sharqshunosligi XX–XXI asrlarda Islom va Markaziy Osiyo bo‘yicha muhim tadqiqotlarni olib borgan. Shveysariya sharqshunosligida Fritz Mayer va Anke von Kyugelgenning ilmiy merosi alohida o‘rin tutadi. Ularning tasavvufshunoslikka qo‘shgan hissasi ilmiy yondashuv va tadqiqot metodologiyasi jihatidan bir-biridan farqlansa-da, har ikkisi G‘arb akademiyasida Markaziy Osiyo tasavvufini o‘rganishning muhim yo‘nalishlarini shakllantirgan. Ushbu maqola Shveysariyalik ikki yetakchi olim – Fritz Mayer va *Anke fon Kyugelgenning tasavvufga oid ilmiy merosini ko‘rib chiqadi. Ularning asarlari Markaziy Osiyo tasavvufining falsafiy, ijtimoiy va tarixiy jihatlarini anglashda yangi yo‘nalishlarni ochgan.

Fritz Mayer Shveysariyaning Bazel universitetida ishlagan, asosan islom mistitsizmi, fors va arab tillaridagi tasavvufiy matnlar tarjimasi bilan shug‘ullangan. Olim islomshunoslik, tasavvufshunoslikka oid bo‘lgan bir qator asarlarni¹ yozgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Fritz Mayerning ilmiy faoliyati islom tasavvufi va uning tarixiy shakllari tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, u tasavvufiy tariqatlarning rivojlanishi, ularning ta’limotlari va amaliyotlarini filologik hamda tarixiy jihatdan o‘rgangan. Uning tadqiqotlari, ayniqsa, Naqshbandiya va Kubraviya tariqatlariga, shuningdek, tasavvufning falsafiy va mistik jihatlariga alohida e’tibor qaratgan.

* Anke von Kügelgen – shveysariyalik islomshunos olim bo‘lib, islom falsafasi, tasavvuf, islom tarixshunosligi va madaniyat tarixi bo‘yicha tadqiqotlari bilan tanilgan. Berlindagi Erkin Universitetda islomshunoslik, tarix va arabshunoslik bo‘yicha tahsil olgan hamda Damashq Universitetida islom falsafasini o‘rgangan. 1992-yilda Averroes (Ibn Rushd) merosining arab modernizmidagi o‘rni haqidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan, 2000-yilda esa Ruhr Universitetida Markaziy Osiyoda hokimiyat legitimatsiyasiga bag‘ishlangan tadqiqoti bilan habilitatsiya qilgan. U akademik faoliyatini Bochum, Gamburg va Berlin kabi universitetlarda olib borgan, 2000-2021-yillarda esa Bern Universitetida professor sifatida ishlagan. Uning ilmiy ishi asosan islom falsafasi, tasavvuf va islom tarixshunosligi bilan bog‘liqdir.

¹ Meier, Fritz. *Vom Wesen der islamischen Mystik*. Basel: Schwabe, 1943, 150 S.; *Die Vita des Scheich Abū Ishāq al-Kāzarūnī in der persischen Bearbeitung von Maḥmūd b. ‘Uṣmān* (= Bibliotheca Islamica. Band 14). Leipzig: Brockhaus, 1948, 220 S.; *Die Fawā’ih al-ḡamāl wa-fawātiḥ al-ḡalāl des Naḡm ad-dīn al-Kubrā*. Wiesbaden: Steiner, 1957, 446 S.; *Die schöne Maḥsatī*. Wiesbaden: Steiner, 1963, 180 S.; *Abū Sa‘īd-i Abū l-Ḥayr (357-440/967-1049). Wirklichkeit und Legende* (= Acta Iranica. Band 11). Leiden: Brill, 1976, 270 S.; *Bahā’-i Walad*. (= Acta Iranica. Band 27). Leiden: Brill, 1989, 320 S.; *Bausteine. Ausgewählte Aufsätze zur Islamwissenschaft*. Istanbul / Stuttgart: Franz Steiner Verlag, 1992, 450 S.; *Zwei Abhandlungen über die Naqšbandiyya* (= Beirut Texts and Studies. Band 58). Istanbul / Stuttgart: Franz Steiner Verlag, 1994, 373 S.; *Bemerkungen zur Mohammedverehrung* (= Nachgelassene Schriften. Band 1). Leiden: Brill, 2002, 210 S.

Uning "Die Fawā’ih al-ğamāl wa-fawātiḥ al-ğalāl des Nağm ad-dīn al-Kubrā², "Bahā’-i Walad: Grundzüge seines Lebens und seiner Mystik"³ va "Zwei Abhandlungen über die Naqšbandiyya"⁴ kabi asarlarida Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlari allomlari va ularning ilmiy merosi tahlil qilinadi. Aytish joizki, uning tadqiqotlari tasavvuf matnlarini lingvistik va ma’no jihatidan chuqur tahlil qilishga asoslangan.

Olimning 1957-yilda nashrdan chiqqan "Die Fawā’ih al-ğamāl wa-fawātiḥ al-ğalāl des Nağm ad-dīn al-Kubrā" asarida XII–XIII asrlarda yashagan tasavvuf mutafakkiri Najmiddin Kubroning ta’limotlarini o’rganib tahlil qilgan. Fritz Mayerning ushbu asari buyuk tasavvuf allomasi Najmiddin Kubro va uning tasavvufiy qarashlariga bag’ishlangan. Kitob ikki asosiy bo’limdan iborat bo’lib, birinchi qismida Najmiddin Kubroning hayoti va merosi – uning tug’ilishi, sayohatlari, ilmiy faoliyati va e’tiqodiy qarashlari yoritiladi. U Xorazmda tasavvuf maktabi tashkil etganligi va sufiy tajribalarga oid asarlar yozganligi yoritiladi, ikkinchi bo’limida esa uning tasavvufiy qarashlari – Ilohiy birlik, mistika va tush o’rtasidagi bog’liqlik, ilohiy ismlar va tahlil qilinadi. Mayer matnshunoslik usulidan foydalangan holda qo’lyozmalar bilan ishlagan va tasavvufning metafizik jihatlariga, xususan, "fano" va "baqo" tushunchalariga alohida e’tibor qaratgan⁵. Shuningdek, Fritz Mayer "Die Fawā’ih al-Ğamāl wa-Fawātiḥ al-Ğalāl" asarida Kubraviya tariqatining Markaziy Osiyo va Eron hududlaridagi rivojlanishiga e’tibor qaratgan. U tariqatning metafizik asoslari va boshqa tasavvufiy tariqatlar bilan bog’liqligini, jumladan Kubraviya va Suhravardiya tariqatlarini taqqoslab o’rgangan. Uning tadqiqotlari G’arb akademiyasida Kubraviya tariqatining ilmiy tadqiqotiga asos yaratgan.

MUHOKAMA

Mayerning "Bahā’-i Walad. Grundzüge seines Lebens und seiner Mystik" (1989) asari Jaloliddin Rumiyning otasi Bahouddin Valadning hayoti va tasavvufiy qarashlariga bag’ishlangan bo’lib, u Valadning tasavvufiy tajribalarini va uning Rumi ta’limotiga ta’sirini tahlil qiladi⁶.

Fritz Mayerning "Zwei Abhandlungen über die Naqšbandiyya" asari islomshunoslik va tasavvufshunoslikda muhim o’rin tutadi. 1994-yilda nashr etilgan "Zwei Abhandlungen über die Naqšbandiyya" (Naqshbandiya haqida ikki

² Meier, F. Die Fawā’ih al-ğamāl wa-fawātiḥ al-ğalāl des Nağm ad-dīn al-Kubrā. Eine Darstellung mystischer Erfahrungen im Islam aus der Zeit um 1200 n. Chr. – Wiesbaden: Steiner, 1957. – 446 s.

³ Meier, F. Bahā’-i Walad: Grundzüge seines Lebens und seiner Mystik. – Leiden: Brill, 1989. – 250 s.

⁴ Meier, F. Zwei Abhandlungen über die Naqšbandiyya. – Istanbul / Stuttgart: Franz Steiner Verlag, 1994. – 373 s.

⁵ Meier, F. Die Fawā’ih al-ğamāl wa-fawātiḥ al-ğalāl des Nağm ad-dīn al-Kubrā. Eine Darstellung mystischer Erfahrungen im Islam aus der Zeit um 1200 n. Chr. – Wiesbaden: Steiner, 1957. – 446 s.

⁶ Meier, F. Bahā’-i Walad: Grundzüge seines Lebens und seiner Mystik. – Leiden: Brill, 1989. – 250 s.

risola) asari Naqshbandiya tariqatining ikki asosiy jihatini o’rganishga bag’ishlangan. Bular:

"Die Herzensbindung an den Meister" – Shayx va murid o’rtasidagi ruhiy aloqaning tasavvufdagi o’rni va ta’siri.

"Kraftakt und Faustrecht des Heiligen" – Naqshbandiya shayxlarining tasavvufiy ta’siri, ruhiy kuchlari va mo’jizalar haqidagi qarashlar⁷.

Asarda ushbu tariqatning tarixi, asosiy ta’limotlari va ruhiy amaliyotlari yoritilgan. Mayer ushbu risolalarda Naqshbandiya tariqatining ruhiy va tarbiyaviy tamoyillarini filologik va tarixiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Olim bu ishida Naqshbandiyaning asosiy tushunchalari – “xush dar dam” (har nafasda hushyorlik) va “sukut zikri” kabi konsepsiyalarni chuqur tahlil qilgan⁸. Jumladan, u tariqat tomonidan joriy qilingan "xush dar dam, xush dar nazar" tamoyilining an’anaviy sufiylikdan farqli jihatlarini ko’rsatib beradi. U, ayniqsa, "rābita" tushunchasiga e’tibor qaratib, shayx va murid o’rtasidagi ruhiy bog’liqlikning rolini o’rganadi⁹.

Shuningdek, kitobda Naqshbandiya tariqatining asosiy tamoyillari, zikr amaliyoti va Naqshbandiylarning boshqa tasavvufiy tariqatlardan farqlari ham ko’rib chiqiladi. Jumladan, Mayer Naqshbandiyaning shariat va tasavvuf o’rtasidagi uyg’unlikka intilishlarini ham yoritib, tariqatning ushbu ikki jihatni birlashtirishga bo’lgan harakatlarini asosli dalillar bilan tasdiqlaydi.

Mayerning ushbu asari Naqshbandiya tariqatini ilmiy o’rganishda muhim manba bo’lib, G’arb akademik doiralarida tasavvufga bo’lgan qiziqishni oshirishga xizmat qilgan.

Fritz Mayerning tadqiqoti arab va fors tillaridagi diniy matnlarni filologik va semiotik usulda tahlil qilib, tasavvufiy tushunchalarni G’arb falsafasi, ayniqsa, Plotin qarashlari bilan qiyoslaydi. Bu ilmiy doiralarda yuqori baholangan bo’lsa-da, ijtimoiy va siyosiy kontekstga kam e’tibor qaratgani sababli tanqid qilingan. Xususan, Naqshbandiya tariqatining Temuriylar davridagi o’rni yetarlicha yoritilmagan. Shuningdek, uning mistik talqinlari va G’arb markazchilik yondashuvi ba’zi tadqiqotchilar tomonidan bahsli deb topilgan. Biroq, uning matnlarga chuqur kirib borishi Hamid Algar kabi olimlar tomonidan yuqori baholangan¹⁰.

Anke von Kyugelgen Markaziy Osiyo tasavvufining ijtimoiy va siyosiy jihatlarini tadqiq qilib, uning zamonaviy davrdagi o’zgarishlarini yoritgan.

⁷ Meier, F. Zwei Abhandlungen über die Naqshbandiyya. – Istanbul / Stuttgart: Franz Steiner Verlag, 1994. – 373 s.

⁸ Doniyorov A., Abdurasulov Sh. Markaziy Osiyo tasavvuf tarixining nemis olimi Yurgen Paul tomonidan tadqiqi: Naqshbandiyya misolida // "XXI asr: fan va ta’lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. – 2025. – № 3. – S. 307–321. – DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17587678>.

⁹ Meier, F. Zwei Abhandlungen über die Naqshbandiyya. – Istanbul / Stuttgart: Franz Steiner Verlag, 1994. – 373 s. 135-185-s

¹⁰ Algar, H. Political Aspects of Naqshbandi History. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 245 p.

Kyugelgen, Bern universiteti professori, Markaziy Osiyoning XVIII – XX asrlar madaniy va siyosiy tarixini o’rganib, bu sohada muhim ilmiy hissalar qo’shgan¹¹. Uning 1997-yilda nashrdan chiqqan “Die Legitimierung der mittelasiatischen Mangitendynastie in den Werken ihrer Historiker (18.-19. Jahrhundert)”¹² asarida Buxoro Mang’itlari hukmdorlarining tasavvuf shayxlaridan legitimlik izlash jarayonini arxiv hujjatlar asosida yoritgan. Asarda XVIII – XIX asrlarda Buxoro amirligida Mang’itlar sulolasining hokimiyatini oqlash strategiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot asosiy e’tiborni tarixiy asarlarda hukmdorlarning legitimatsiya mexanizmlariga qaratgan bo’lib, sulola tarixchilari va mustaqil mualliflar tomonidan yozilgan to’qqizta fors-tojik tilidagi tarixiy manba o’rganilgan.

Kyugelgen tadqiqotlarida Rossiya imperiyasi va Sovet arxivlaridagi hujjatlarga asoslangan holda, Buxoro amirligiga oid yozishmalarni ilmiy muomalaga kiritgan. U fanlararo yondashuvi usuli orqali tarix, sotsiologiya va antropologiyani uyg’unlashtirib, tasavvuf va milliy identitet o’rtasidagi munosabatlarni ham o’rgangan. Kyugelgenning ilmiy yondashuvi tasavvufni faqat diniy tizim sifatida emas, balki dinamik ijtimoiy hodisa sifatida ko’rsatishga asoslangan. Uning tadqiqotlari gender masalalariga ham e’tibor qaratib, XIX asr Buxorosidagi ayollar ziyoratgohlari haqida yangi ilmiy qarashlarni ilgari surgan.

“Muslim Culture in Russia and Central Asia from the 18th to the Early 20th Centuries” nomli ilmiy to’plami Anke von Kyugelgenning hammuallifligida nashr etildi. “Muslim Culture in Russia and Central Asia from the 18th to the Early 20th Centuries” – Markaziy Osiyoda islom madaniyati tarixi bo’yicha muhim ilmiy tadqiqotlardan biri. Ushbu to’plamda Rossiya imperiyasi va Markaziy Osiyodagi musulmon madaniyatining XVIII asrdan XX asr boshlarigacha bo’lgan rivojlanishini o’rgangan risola va maqolalar mavjud. Asar islom madaniyatining turli sohalarini, jumladan: diniy hayot (sufiylik, Naqshbandiya tariqati, islom

¹¹ Kügelgen, Anke von. *Averroes und die arabische Moderne: Ansätze zu einer Neubegründung des Rationalismus im Islam*. Leiden: Brill, 1994, 592 s.; *Die Legitimierung der mittelasiatischen Mangitendynastie in den Werken ihrer Historiker (18.-19. Jahrhundert)*. Wiesbaden: Harrassowitz, 2002, 640 S.; *Philosophie in der islamischen Welt. Band 4/1: 19. und 20. Jahrhundert: Arabischer Sprachraum*. Hrsg. von Ulrich Rudolph, Renate Würsch, Anke von Kügelgen. Basel: Schwabe, 2020, 618–1480 S.; *Philosophie in der islamischen Welt. Band 4/2: 19. und 20. Jahrhundert: Türkei, Iran und Südasien*. Basel: Schwabe, 2021, 615–898 S.; *Repression, Anpassung, Neuorientierung: Studien zum Islam in der Sowjetunion und dem postsowjetischen Raum*. Hrsg. von Raoul Motika, Michael Kemper, Anke von Kügelgen. Wiesbaden: Reichert Verlag, 2013, 450 S.; *Disputy musul’manskich religioznych avtoritetov v Central’noj Azii v XX veke*. Anke von Kügelgen, Baxtiyor M. Babajanov, Ashirbek Muminov. St. Petersburg: Peterburgskoe Vostokovedenie, 2007, 320 S.; *Moral Education in Central Asia, 19th–21st Centuries: The Foundations for Sufi, Jadīd, Soviet, National, and Islamist Ethics*. In *Islam and Education in Post-Soviet Central Asia*, ed. Michael Kemper & Alfrid Bustanov. London: Routledge, 2017; *Wissenschaft, Philosophie und Religion: Religionskritische Positionen um 1900*. Berlin: Klaus Schwarz Verlag, 2017; *Dieses Herz gehört euch: Gedichte, 1940-1982*. Orhon Murat Ariburnu tomonidan yozilgan, Anke von Kügelgen tomonidan tarjima qilingan. Berlin: Edition Orient, 1985.

¹² Kügelgen, A. *Die Legitimierung der mittelasiatischen Mangitendynastie*. – Berlin: Klaus Schwarz Verlag, 1997. – 400 s.

olimlari faoliyati), madaniy jarayonlar (adabiyot, til, ta’lim, islomiy arxitektura), siyosiy kontekst (musulmonlarning Rossiya imperiyasidagi o’rni, islom va davlat munosabatlari) singari muhim jihatlar orqali o’rganadi. Ushbu to’plamda Anke von Kügelgenning "Buxara im Urteil Europäischer Reisender des 18. und 19. Jahrhunderts" (18–19-asrlarda Yevropalik sayohatchilar naznida Buxoro) nomli maqolasi o’rin olgan. Ushbu tadqiqotda G’arb tarixshunosligida Buxoroning qanday tasvirlangani, jumladan islom dinining mintaqadagi o’rni va ta’siri tahlil qilinadi. Uning asosiy yutug’i – Rossiya imperiyasi va Markaziy Osiyo musulmonlari o’rtasidagi munosabatlarni har tomonlama yoritishidir.

"Repression, Anpassung, Neuorientierung. Studien zum Islam in der Sowjetunion und dem postsowjetischen Raum"¹³ ilmiy asarini Anke von Kyugelgen Raul Motika, Michael Kemperlar bilan hammualliflikda yozadi. Asar sobiq Sovet Ittifoqi hududlarida islomning rivojlanishi, repressiya davri, diniy moslashuv va mustaqillikdan keyingi yangi yo’nalishlarni tadqiq qiladi. Tadqiqot Rossiya, Kavkaz va Markaziy Osiyo mamlakatlariga qaratilgan bo’lib, diniy ta’lim, shariat amaliyoti va sufiylik harakatlari tahlil qilinadi. Ushbu asar 1996–2004-yillarda nashr etilgan "Muslim Culture in Russia and Central Asia" seriyasining davomidir va 2002–2006-yillarda o’tkazilgan tadqiqotlarga asoslangan. Kyugelgen ijtimoiy tarixiy metodologiya asosida tasavvuf va siyosat o’rtasidagi o’zaro aloqalarni tahlil qilgan hamda Sovet davrida tasavvufning saqlanib qolish sabablarini o’rgangan.

Asarda Sovet hukumati tomonidan 1920–1930-yillarda diniy institutlarning yopilishi va diniy yetakchilarning qatag’on qilinishi batafsil tasvirlangan. 1936–1938-yillardagi “Buyuk tozalash” davrida minglab ulamolarning qatl etilgani yoki surgun qilingani, natijada diniy ta’lim tizimining uzilishiga sabab bo’lgani qayd etilgan. Biroq, hujra maktablari kabi yashirin ta’lim shakllari orqali islomiy bilimlarning saqlanib qolgani ham ta’kidlangan. Islom ustidan nazorat o’rnatish maqsadida Sovet hukumati tomonidan 1943-yilda muftiyatlar tashkil etilgani ko’rsatilgan. Ushbu muftiyatlarning rasmiy islomni shakllantirishga urinish sifatida qabul qilingani va ulamolar faoliyatining KGB tomonidan qat’iy nazorat ostida bo’lgani qayd etilgan. Rasmiy diniy institutlar orqali islomning “madaniy meros” sifatida saqlanib qolishi ta’kidlangan bo’lsa-da, amaliy diniy hayot cheklanganligi ko’rsatilgan. Anke von Kügelgen o’z asarlarida Sovet davrida Naqshbandiya tariqatining omon qolish strategiyalarini tahlil qiladi. U tasavvufiy amaliyotlarning repressiv tuzum sharoitida qanday yashirin davom etgani, sovet elitalari bilan aloqalari va jadidchilik bilan murakkab munosabatlarini o’rganadi. Kügelgenning

¹³ "Repression, Anpassung, Neuorientierung: Islamische Bildung im sowjetischen und postsowjetischen Raum." Motika, Raoul, Michael Kemper, and Anke von Kügelgen (eds.). Wiesbaden: Reichert, 2013. 240 s.
www.sharqjurnali.uz DOI: 10.5281/zenodo.18049064

tadqiqoti tasavvufning totalitar sharoitda omon qolish usullarini ijtimoiy-siyosiy kontekstda yoritib, Naqshbandiyaning Sovet davridagi moslashuvchanligini ochib beradi. 1920–1930-yillarda Sovet hukumati diniy faoliyatni cheklagan bo‘lsa-da, Naqshbandiy shayxlari yashirin "g‘arib zikr" marosimlarini davom ettirgan. Shu bilan birga, ayrim sovet amaldorlarining sufiy shayxlar bilan maxfiy aloqalari mavjud bo‘lib, Toshkentdagi partiya a‘zolarining Ahmad Yassaviy maqbarasiga ziyorati bunga misol bo‘la oladi. Sovet davrida tariqat rasmiy doirada saqlanishi uchun Naqshbandiylik "madaniy meros" sifatida talqin qilingan, bu esa 1960-yillarda Bahouddin Naqshband maqbarasining restavratsiya qilinishida namoyon bo‘lgan¹⁴.

Kyugelgen XIX–XX asrlarda tasavvuf, jumladan Naqshbandiya va jadidchilik o‘rtasidagi munosabatlarni ham tahlil qiladi. U jadidchilik va tasavvuf o‘rtasidagi munosabatni ham tadqiq etib, Naqshbandiya tariqatining zamonaviy transformatsiyasini ilmiy muhokama maydoniga olib chiqqan. Ularning o‘zaro aloqalari ziddiyatli emas, balki murakkab bo‘lib, ba’zi Naqshbandiy vakillari jadid g‘oyalariga ochiq bo‘lgan¹⁵.

Shuningdek, asarda mustaqillikdan keyingi davrda islomning qayta tiklanishi va minglab masjid va madrasalarning ochilishi jarayoni yoritilgan. Biroq, hukumatlar tomonidan “an’anaviy islom” va “ekstremistik oqimlar” o‘rtasidagi chegara o‘rnatishga intilish kuzatilgani qayd etilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Fritz Mayer va Anke von Kyugelgen o‘z tadqiqotlarida birlamchi manbalarga, jumladan, qo‘lyozmalar va arxiv hujjatlariga tayanishgan. Biroq, ularning yondashuvlari sezilarli farqlarga ega. Fritz Mayer, asosan XII–XV asrlar orasidagi klassik tasavvufni tadqiq qilgan bo‘lsa, Anke von Kügelgen zamonaviy tasavvufning XVIII–XXI asrlardagi siyosiy jihatlariga e’tibor qaratgan. Ularning tadqiqot metodlari, asosiy mavzulari va ishlatilgan manbalari bir-biridan farq qiladi. Fritz Mayer tasavvufni filologik va falsafiy nuqtai nazardan o‘rgangan bo‘lib, uning tadqiqotlari asosan arab va fors tillaridagi diniy matnlarga asoslangan. U tasavvuf falsafasi va amaliyotini chuqur tahlil qilgan. Mayer yondashuvida, ayniqsa, tasavvufiy matnlarning lingvistik va tafsiriy jihatlarini markaziy o‘rin tutadi. Anke von Kyugelgen esa sotsio-tarixiy va fanlararo yondashuv metodlardan foydalanadi. U tasavvufni nafaqat diniy hodisa, balki siyosiy kontekstda ham o‘rganadi. Uning tadqiqotlari tarixiy arxivlar va mahalliy

¹⁴ "Repression, Anpassung, Neuorientierung: Islamische Bildung im sowjetischen und postsowjetischen Raum." Motika, Raoul, Michael Kemper, and Anke von Kügelgen (eds.). Wiesbaden: Reichert, 2013. 240 s.

¹⁵ Shu asar. 175 -186 betlar

manbalarga asoslangan bo‘lib, tasavvufning siyosiy legitimatsiya jarayonlaridagi rolga e’tibor qaratadi.

Fritz Mayerning asarlari ko‘pincha tor mutaxassislar doirasida qolib ketgan va kengroq ijtimoiy-siyosiy kontekstga unchalik bog‘lanmagan. Bunga qarama-qarshi ravishda, Anke von Kyugelgen tasavvufni "tarixdan tashqaridagi mistika" emas, balki ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tarkibida o‘rganishga harakat qilgan. Uning tadqiqotlari tasavvufning jamiyat va siyosiy tuzumlar bilan o‘zaro aloqalarini yoritib, uni tarixiy va ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilishga qaratilgan.

Shunday qilib, ushbu ikki olimning yondashuvlari tasavvufni turli jihatlar bilan o‘rganishga imkon beradi. Meier tasavvufning ichki falsafasi va amaliyotini chuqur tahlil qilgan bo‘lsa, Anke von Kyugelgen uning siyosiy va ijtimoiy jihatlariga urg‘u bergan. Ularning tadqiqotlari Markaziy Osiyo tasavvufi bo‘yicha keng qamrovli tasavvur hosil qilishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish joizki, Shveysariya sharqshunosligi ilmiy yondashuvi va neytralligi bilan ajralib turadi. Uning rivojlanishida bir necha asosiy jihatlar muhim rol o‘ynaydi. Birinchidan, filologik an’ana ushbu yo‘nalishning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, Fritz Mayer kabi olimlar Sharq matnlarini filologik tahlil qilish va tasavvufiy matnlarning murakkab tuzilishini o‘rganishga e’tibor qaratgan. Bu yondashuv matnlarning asl mazmunini to‘g‘ri anglash va tarixiy kontekstda tahlil qilish imkonini beradi. Ikkinchidan, Shveysariya sharqshunosligi neytral akademik nuqtai nazarni saqlashga intiladi. Bu tadqiqotchilarning Sovet yoki G‘arb stereotiplaridan qochishga urinishida namoyon bo‘ladi. Masalan, Anke von Kyugelgen Sovet davrida shakllangan ilmiy yondashuvlarni tanqidiy baholagan va tasavvufni mustaqil ilmiy nuqtai nazardan o‘rganishga harakat qilgan. Uchinchidan, Shveysariya universitetlari global hamkorlikka katta e’tibor qaratadi. Xususan, Bern universitetining Toshkent Islom universiteti bilan hamkorligi Markaziy Osiyoda ilmiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu esa tasavvufshunoslik va mintaqalar tarixi bo‘yicha yangi tadqiqotlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Fritz Mayer va Anke von Kyugelgen Shveysariya sharqshunosligining turli avlodlarini ifodalaydi: Mayer klassik matnlar orqali tasavvufning ma’naviy qatlamlarini, Kyugelgen esa uning ijtimoiy va siyosiy jihatlarini tadqiq qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Algar, H. Political Aspects of Naqshbandi History. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 245 p.

2. Bashir, S. Messianic Hopes and Mystical Visions: The Nurbakhshiya Between Medieval and Modern Islam. – Columbia: University of South Carolina Press, 2003. – 312 p.
3. DeWeese, D. Islamization and Native Religion in the Golden Horde. – Pennsylvania: Penn State Press, 1994. – 480 p.
4. DeWeese, D. The Eclipse of Kubrawi Sufism in Central Asia. – *Journal of Sufi Studies*, 2020. – Vol. 9, No. 2. – P. 120-143.
5. Gross, J.-A. The Naqshbandiyya: Orthodoxy and Activism in a Global Sufi Tradition. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2018. – 278 p.
6. Kemper, M. Sufis und Gelehrte in Tatarien und Tschetschenien. – Berlin: Schwarz, 1998. – 310 s.
7. Kemper, M. The Heritage of Soviet Oriental Studies. – London: Routledge, 2011. – 289 p.
8. Kügelgen, A. Die Legitimierung der mittelasiatischen Mangitendynastie. – Berlin: Klaus Schwarz Verlag, 1997. – 400 s.
9. Kügelgen, A. Die Legitimierung der mittelasiatischen Mangitendynastie in den Werken ihrer Historiker (18.–19. Jahrhundert). – Würzburg: Ergon Verlag, 2002. – 518 s.
10. Kügelgen, A. von & Muminov, A. X asr Samarqand ilohijotchilari. – In: *Imom al-Buxoriy Saboqlari*, 2003. – № 1. – S. 15-19.
11. Kügelgen, A. von. Die Entfaltung der Naqshbandiyya muğaddidiyya im mittleren Transoxanien vom 18. bis zum Beginn des 19. Jahrhunderts: Ein Stück Detektivarbeit. – In: *Muslim Culture in Russia and Central Asia from the 18th to the Early 20th Centuries*. – Vol. 2. – Eds. A. von Kügelgen, M. Kemper, A. J. Frank. – Berlin: Schwarz, 1998. – S. 101-151.
12. Kügelgen, A. von. Inszenierung einer Dynastie. Geschichtsschreibung unter den frühen Mangiten Bucharas. – Bochum: Habil., 2000. – 430 s.
13. "Repression, Anpassung, Neuorientierung: Islamische Bildung im sowjetischen und postsowjetischen Raum." Motika, Raoul, Michael Kemper und Anke von Kügelgen (Hrsg.). Wiesbaden: Reichert, 2013.
14. Meier, F. Zwei Abhandlungen über die Naqshbandiyya. – Istanbul / Stuttgart: Franz Steiner Verlag, 1994. – 373 s.
15. Meier, F. Die Fawā'id al-ğamāl wa-fawā'id al-ğalāl des Nağm ad-dīn al-Kubrā. Eine Darstellung mystischer Erfahrungen im Islam aus der Zeit um 1200 n. Chr. – Wiesbaden: Steiner, 1957. – 446 s.
16. Meier, F. Bahā'i Walad: Grundzüge seines Lebens und seiner Mystik. – Leiden: Brill, 1989. – 250 s.
17. Meier, F. Essays on Islamic Piety and Mysticism. – Leiden: Brill, 1994. – 320 p.
18. Meier, F. A Book of Etiquette for Sufis. – In: *Essays on Islamic Piety and Mysticism*. – Tr. J. O'Kane. – Leiden, Boston & Köln: Brill, 1999. – P. 49-92.
19. Muminov, A. The Legacy of Islamic Learning in Central Asia. – Tashkent: Da'vat Publishing, 2005. – 240 p.
20. Muslim Culture in Russia and Central Asia from the 18th to the Early 20th Centuries. – Vol. 1. – Eds. M. Kemper, A. von Kügelgen, D. Yermakov. – Berlin: Schwarz, 1996. – 400 p.
21. Papas, A. Mystical Pathways and Social Resistance: Naqshbandis in Soviet Central Asia. – Oxford: Oxford University Press, 2016. – 280 p.
22. Paul, J. Die politische und soziale Bedeutung der Naqshbandiyya in Mittelasien im 15. Jahrhundert. – Berlin & New York: Walter de Gruyter, 1991. – 340 s.
23. Paul, J. Doctrine and Organization: The Khwajagan/Naqshbandiya in the First Generation after Baha'uddin. – Berlin: Das Arabische Buch, 1998. – 87 p.
24. Said, E. Orientalism. – New York: Pantheon Books, 1978. – 368 p.
25. Safarova, D. Gender Dynamics in Sufi Communities of Central Asia. – Tashkent: Fan, 2021. – 220 p.
26. Schimmel, A. Mystical Dimensions of Islam. – Chapel Hill: UNC Press, 1975. – 512 p.

27. Abdurasulov Sh. Naqshbandiya tariqati va allomalari merosining xorijda o‘rganilishi // *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*. – 2024. – № 10(47). – ISSN 2181-3035.
28. Doniyorov A., Abdurasulov Sh. Markaziy Osiyo tasavvuf tarixining nemis olimi Yurgen Paul tomonidan tadqiqi: Naqshbandiyya misolida // "XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. – 2025. – № 3. – S. 307–321.
DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17587678>.
29. Abdurasulov, Shahzod. "Markaziy Osiyo tasavvuf tariqati allomasi Bahouddin Naqshband va uning ilmiy merosi to ‘g ‘risida ma’lumot beruvchi manbalar tahlili." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural, and social sciences* 4.5 (2024): 46-51.
30. Abdurasulov Sh. Annemarie Schimmel asarlarida Markaziy Osiyo tasavvuf allomalari va ularning ilmiy merosi tahlili // International Scientific-Practical Conference “Historical realities and philosophical ideals: dialogues across disciplines”, 20 September, 2025. – Tashkent: Tashkent State University of Oriental Studies, 2025. – S. 399-410.